

**O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA TRANPOZITSIYA HODISASI****Asatova Gulmira**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti  
2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada transpozitsiya hodisasi, uning turlari o‘zbek xalq maqollarida uchraydigan transpozitiv so‘zlar tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** transpozitsiya konversiya, paradigma, tejamkorlik, pronominalizatsiya verbalizatsiya, turg‘un birikmalar

So‘z turkumining ko‘chishi – transpozitsiya deganda, ma‘lum bir turkumga mansub so‘zning o‘ziga xos bo‘lgan atash, vazifa semasini kuchsizlantirib, boshqa so‘z turkumiga xos semantik va grammatik belgiga ega bo‘lishi tushuniladi. Bir turkumdan ikkinchi turkumga o‘tish (ko‘chish) (umumiy nomlanishi leksikalizatsiya, xususiy ko‘rinishlari otlashish – substantivatsiya, sifatlashish – adyektivatsiya, olmoshlashish – pronominalizatsiya, ravishlashish – adverbializatsiya, fe‘lga o‘tish – verbalizatsiya) atamalar bilan yoki keyingi yillarda konversiya, ba‘zan transpozitsiya deb nomlanadigan hodisalar o‘zbek tilshunosligining chigal muammolaridan. [4., 262-b] «O‘zbek tilinig izohli lug‘ati»da ko‘chish ya‘ni transpozitsiya termini o‘rniga konversiya atamasi qo‘llanilgan. «Biror tizimga oid til birligini boshqa tizimga oid birlikka aylantirish bilan yangi birlik hosil qilish», deb izohlanadi. Mazkur ikki belgilar tizimining bir-birini taqozo etishi hamda kommunikativ jarayonning amalga oshishida katta o‘rin tutadi. Badiiy matnda, ayniqsa, maqollarda transpozitsiya hodisasi keng uchryadi.

Barchamizga ma‘lumki, maqol – (arabcha maqola, kichik asar; so‘z, nutq) hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihati mazmuniga ega bo‘lgan ixcham, obrazli, tugal ma‘noli va hikmatli ibora, gap [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 569].

Shu qatori maqollar o‘zbek tilida hikmatli so‘zlar deb ham yuritiladi va maqollar o‘zida juda katta ma‘nolarni tashiydi. Ko‘pincha kishilarning nutqida fikrni ixcham, tushunarli qilish uchun ham foydalanadi.

Turkiy tillarda so‘zlarning konversiya usulida ko‘chishi ham kuzatiladi. Ko‘chish so‘zning o‘z kategorial ma‘nosini va sintaktik vazifasini tubdan o‘zgartiradi. Ayni shu xususiyatlar tildagi turg‘un birikmalar, maqollar va hikmatli so‘zlar tarkibida qo‘llanuvchi transpozision so‘zlar buning yaqqol namunasidir. Jumladan:

Ona yurtning – oltin beshiging;

Eshitgan ko‘rganni urib engibdi;

Yaxshi oshini eydi, yomon - boshini;

Birniki – mingga, mingniki – tumanga.

Komponent hamda struktura jihatdan uni tashkil qiluvchi qismlar ham maqollarning mazmuniga bevosita ta‘sir qiladi. Ayniqsa, maqollar tarkibida qo‘llaniluvchi transpozitiv so‘zlar tejamlilik asosida shakl jihatdan qisqalikka, mazmunan esa ma‘noni keng va chuqur ma‘noli qilib ifodalashga yordam beradi. Transpozitiv so‘zlar ko‘pincha morfologik hamda sintaktik vazifasiga ko‘ra o‘zbek xalq og‘zaki ijodining go‘zal namunalari biri bo‘lgan maqollarning tarkibida uni shakl hamda mazmun jihatdan to‘ldirishga xizmat qilib keladi. Tilshunos J.Eltazarov turkiy tillardagi so‘z turkumlari darajasidagi ko‘chishda asosan, ko‘char va ko‘chkin so‘zning o‘z kategorial ma‘nosini hamda sintaktik vazifasini tubdan o‘zgartirishini hamda ayni

shu xususiyatlarning tildagi turg'un birikmalar, maqollar va hikmatli so'zlar tarkibida qo'llaniluvchi ko'chkin so'zlarda kuzatilishini ta'kidlab o'tadi [2. 93-b].

Maqollar qisqa ammo ulkan-ulkan ma'no ifodalashi va nutqni go'zal qilishidan xabarimiz bor. Shunday ekan maqollarda tejamkorlik yuqori bo'ladi. Misol uchun:

Elning ichi – oltin beshik

Ona yurtning — oltin beshiging.

Mazkur maqollar tarkibida qo'llanilgan oltin leksemasining sintaktik vazifasi o'zgarishi ya'ni, otga xos bo'lgan ega va to'ldiruvchi vazifasida qo'llanish o'rniga aniqlovchi vazifasida kelishi kuzatilsa, morfologik jihatdan ham kategorial ma'nosi o'zgarib ot ya'ni, nom o'rniga belgi ma'nosi anglashiladi. Tilshunoslikda mazkur holat adektivatsiya deb nomlanib, maxsus belgi ko'rstagichi  $N > At$ . Shu bilan birgalikda transpozitiv birlikning o'ziga xos xususiyatlari ya'ni, sintaktik funksiyasi aniqlovchi aniqlanmish munosabatini ifodalash jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi. Mazkur ikki maqol Vatan va vatanparvarlik мавзусида бўлиб, uning "Bulbul chamanini sevar, odam – Vatanini", "Onaga bo'lgan muhabbat – Vatanga bo'lgan muhabbatning kurtagi", "Har kimning o'z elati o'ziga shirin", "Tug'ilgan joying o'zingga o'tdek ko'rinadi" kabi variantlari mavjud.

Hap ikki maqolda qo'llanilgan oltin leksemasi aslida o'z ma'nosida kimyoviy element, qimmatbaho nodir metall, zar hisoblanadi. Shu jihatdan ham ko'chma ma'noda har qanday qimmatbaho yoki aziz narsaga nisbatdan ma'noni chuqur va keng, ta'sirchan, emotsionallikni ifodalash uchun ham qo'llanilgan. Ya'ni, maqollarimizda o'zbek xalqining ona vataniga bo'lgan cheksiz muhabbati, hurmati, sadoqati o'z ifodasini topgan. Ularda Vatan – el-yurt ulug'lanadi, har kim o'z elida erkin nafas olishi, izzat-hurmatda yashashi ko'rsatilib, Vatanni sevish, unga hamisha sodiq bo'lish zarurligi o'qtiladi [Hikmatnoma, 300]. Shu nuqtai nazardan ham oltin leksemasi qimmatbaholik jihatdan ko'chma ma'noda belgi bildiruvchi so'z sifatida maqollarda qo'llanilgan. Shuningdek, maqollarda etnolingvistik jihatdan har bir xalqqa aloqadorligini ifodalovchi maxsus birliklar ham qo'llanilgan. Shunday birliklardan biri bu – beshik atamasi hisoblanadi. Ma'lumki, beshik atamasi faqat turkiy xalqlarga xos bo'lib, boshqa xalqlarda qo'llanilmaydi.

O'zbek xalq og'zaki ijodida mazkur holatdagi maqollarni juda ko'plab, uchratishimiz mumkin. Masalan,

Tirik ilon insiz qolmas,

Po'lat pichoq – qinsiz .

Shuningdek, maqollarda transpozitiv so'zlarning boshqa turkumga xos bo'lgan grammatik kategoriyalarni ham o'z ustiga olib, vaqtinchalik uning vazifasini bajarib kelishi ham kuzatiladi. Ya'ni birikma o'rnida so'z holatida kelishi kuzatiladi. Masalan,

Beshning boshi bo'lgancha,

Oltining oyog'i bo'l

Birniki – mingga,

Mingniki – tumanga

Mazkur maqollarda sonning aniqlovchi o'rniga, otga xos bo'lgan to'ldiruvchi vazifasida kelishi kuzatilsa, sintaktik jihatdan esa miqdor o'rniga predmet ma'nosi anglashilib turibdi. Maqollarda qo'llanilgan transpozitiv so'zlarning barchasi otning grammatik kategoriyalaridan: egalik shakli – niki, qaratqich kelishigi – ning, jo'nalish kelishigi – ga shakllarini qabul qilgan. So'z birikmasi ifodalaydigan tushuncha ma'lum bir darajada torayib, so'z ifodalaydigan ma'no doirasiga kiritilgan. Aslida maqolda birniki-bitta insonniki, mingga-mingta insonga, mingniki-mingta insonniki, tumanga-son-sanoqsiz, hadsiz insonga shaklida bo'lishi lozim edi. Birniki, mingga, mingniki, tumanga leksemalari shakl jihatdan o'zgargan. Tejamlilik natijasida shakl

jihtadan boshlang'ich holatiga mos kelmay qisqargan muqobiliga aylangan. Qisqargan shakl dastlabki shaklning vazifasini to'liq bajarib, mustaqil so'z sifatida qo'llanila olgan. Struktur jihtadan maqolning qolipiga mos kelmaydi.

Maqollarda transpozitiv so'zning sintaktik funksiyasi o'zgarib kelmoqda. Ya'ni, fe'lning vazifadosh shakllaridan biri bo'lgan sifatadoshning kesim o'rniga aniqlovchi, kategorial jihtadan esa, harakat o'rniga predmetni ifodalab kelishi kuzatiladi. Maqollardagi transpozitiv so'zlar qo'llanish o'rniga ko'ra funksional jihtadan boshqa turkumga xos vazifani vaqtincha bajarib kelgan. Shu bilan birgalikda mazkur maqollarning strukturasi ham o'zgarish ro'y berganligini, tejamlilik holatini ko'rish mumkin. Tejamlilik hodisasida birliklarning strukturaviy jihtadan o'zgarishi natijasida, so'z va boshqa komponentlarning miqdor jihtadan qisqarishi kuzatiladi. . Maqollar tarkibida ko'pincha so'z qo'shish ya'ni, pleonazmdan ko'ra, so'z tashlab, uni qisqartish ya'ni tejamlilik ko'pchilikni tashkil etadi. Chunki til hamisha ixchamlikka, qisqalikka intiladi, ayniqsa, bu xalq maqollarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Aqilli o'zini ayblar, aqlsiz do'stini.... ushbu maqol ham maqollarda tejamkorlik mavzusining yorqin misollaridan biridir, chunki bu maqol qo'shma gap tuzilishida va qo'shma gapning birinchi qismida kesim ishtirok etgan ikkinchi qismida esa kesim tushib qolgan. Aslida, Aqilli ozini ayblar , aqlsiz do'stini ayblar tarzida yozishilish kerak edi, ammo bu ko'rinishda yozilsa uning jozibadorligiga putur yetishi mumkin. Shunday ekan, demak, maqollarning jozibadorligini oshiruvchi instrument ham tejamkorlik ekanligini bu misolimiz orqali anglashimiz mumkin.

Yomon baxil bo'lar,

Yaxshi – ahil.

Yomon bilan yer qo'shni ham bo'lma.

Go'r qo'shni ham bo'lma.

Yomon bilan yotma,

Erta turib aytma

Yomonga gapirsang – bir balo,

Gapirmasang – ikki balo

Maqollar asosan, bog'lovchisiz qo'shma gap shaklida bo'lganligi sababli ular tuzilish jihtadan ham turlichadir. Jumaladan, X. Abdurahmonov bu tipdagi maqollar quyidagicha tuzilishga ega ekanligini ta'kidlaydi:

a)qo'shma gap tarkibiy qismini tashkil etgan ikkinchi gapning kesimi va unga bog'liq bo'lgan so'z ham "tushib qoladi". Bunday vaqtda gapda eganing yakka o'zi yoki o'z aniqlovchisiga ega bo'lgan ega saqlanib qoladi [X.Абдурахмонов, 38].

Bunday tuzilishga ega bo'lgan maqollar sirasiga quyidagi maqollarni sanab o'tish mumkin:

Tekinning minnati ko'p, Mehnatning – ziynati.

Bolasizning moli uvol, imonsizning – joni.

Yantoqning yog'i yo'q, dushmanning – sog'i.

Bundan tashqari xalq maqollarida pronominalizatsiya hodisasi ham keng uchraydi.

Jumladan, quyidagi maqolga diqqat qarataylik:

Kishi bolasiga kishmish bersang ham turmas, o'z bolangning o'zagiga ursang ham ketmas.

Mazkur maqolda qo'llangan kishi so'zi ot turkumiga oid so'z hisoblanadi. Maqol tarkibida esa olmoshning gumon olmoshi (birov) turiga ishora qilgan holda, pronominalizatsiya hodisasini yuzaga chiqarmoqda. Bu maqolning variantlari: "Kishi bolasiga kishmish bersang ham kishilik qilmas", "Kishi bolasini erkalasang ham turmas, o'z bolangni tepkilasang ham ketmas", "Kishi bolasi farzand bo'lmas, farzand bo'lsa ham xursand qilmas". Bu maqollar orqali kishining o'z

farzandi (agar u yaxshi ta'lim-trabiya olib, aqlli, esli-hushli, ma'qul va qobil bo'lib chiqqan bo'lsa, albatta) o'ziga qanchalik sodiq, vafodor bo'lishini bildiradilar.

Xuddi yuqoridagi maqoldagi kabi pronominalizatsiya hodisasi quyidagi maqolda ham aks etgan:

Kishi yurtida shoh bo'lguncha,

O'z yurtida gado bo'l.

Verbalizatsiya hodisasi fe'l bo'lmagan boshqa turkum so'zlarning fe'l bajargan vazifalarda kelishidir. Mazkur hodisani quyidagi maqollar misolida ko'rish mumkin:

Haddidan oshgan kulgidan – yig'i yaxshi.

Kulgi – yaxshi narsa. U kishi diliga shodlik, rohat baxsh etadi, ko'ngilni yoshartiradi, g'am-qayg'udan, dard-u alamdan forig' etadi, suhbat davralariga fayz-u quvonch kiritadi va boshqalar. Ammo, hamma narsaning me'yor bo'lgani kabi, kulguning ham ozi, o'z vaqtida va o'z o'rnida bo'lgani shirin bo'ladi. Bo'lar- bo'lmasga xaxolab yo xiringlab kulaverish, kulgili gap yo voqea-hodisa tugaganidan keyin ham kulgini davom ettiraverish – atrofdagi kishilarning ensasini qotiradi, ranjitadi, asabini buzadi. Shu ma'noda pand-nasihat qilganlarida, tartibga chaqirganlarida yo tanbih berganlarida yuqoridagi maqolni aytadilar. Maqoldagi yaxshi so'zi sifat turkumiga xos vazifa – aniqlovchi bo'lib emas, balki fe'l turkumidagi so'z vazifasida, ya'ni kesim bo'lib kelgan. Shu sabab ham bu maqolda verbalizatsiya hodisasi yuzaga chiqqan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, maqollar tarkibida qo'llaniluvchi transpozitiv so'zlar fikrni ixcham, tushunarli qilishi bilan birgalikda mazmunan emotsional-ekspressiv ta'sirchanlikni oshiradi. Birikma o'rnida transpozitiv so'zning tejamlilik asosida qo'llanilishi shakl va mazmun jihatdan so'zlovchi hamda tinglovchiga qulaylik yaratadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурахмонов Х. Мақоллардаги боғловчисиз қўшма гаплар структурасининг баъзи хусусиятлари// Ўзбек тили ва адабиети, 1962. –Б. 37
2. Элтазаров Ж.Д. Сўз туркуми парадигмасидаги ўзаро алоқа ва кўчиш ҳоллари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006. 169б
3. Исламова Д. Бадиий асар тилидаги транспозитив сузларнинг функционал-семантик хусусиятлари. – Самарканд, 2023. – 151 б.
4. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – 585 b.
5. Hikmatnoma. O'zbek xalq maqollarining izohli lug'ati. – Toshkent, 1975.
6. D.Islamova. Expressive means of language and transposition. International Bulletin of Applied Science and Technology (IBAST). Volume: 3, Issue: 5. – Germaniya, 2023. (Impact factor: UIF = 8,2 | SJIF = 5,955).  
<https://researchcitations.com/index.php/ibast/citationstylelanguage/get/acm-sig-proceedings?submissionId=1721&publicationId=1721>
7. D.Islamova, M.Jalilova. Some comments on Uzbek folk proverbs. Asian Journal of Multidimensional Research Journal. Volume: 10, Issue: 5. – India, May 2021. (Impact factor: SJIF 7.69.)  
<https://indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:ajmr&volume=10&issue=5&article=061>